# XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT

[1] M.Rahmatullayeva,[2]G Rashidova, [3]U. Karakulova-Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy unversitetining Jizzax filiali

**Annotatsiya**:Bugungi kunda talabalarning pedagogik texnalogiyasini innovatsiyon g'oyalarini amalga oshirish hamda takomillashtirish texnologiyalari va loyihalari keng ko'lamda takomillashtirib borilmoqda. Shunday ekan talabalarning inavatsion salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, innovatsion g'oyalarni, texnologiyalar va loyihalarni keng tadbiq qilish maqsadga muofiqdir.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya,pedagogik mahorat, ta'lim, kadrlar masalasi.

***Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta etamiz. Yangi O'zbekistonni ana shunday bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz.***

***Sh.Mirziyoev***

Biz mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasrurini bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdamiz. Aytishimiz joizki bu albatta o'qituvchilarning faoliyati va uning kasbiy nufuzini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Albatta mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash nihoyatda nozik ziddiyadli jarayon hisoblanadi. Fan va texnikaning tobora rivojlanib borishi natijasida axborot tizimining hajmi ham kengayib bormoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar ta'limga tatbiq etilib, ta'lim jarayonlari kompyuterlashtirilmoqda. Bu esa o'z novbatida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV) dan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda.

O‘qituvchi va talaba faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi o‘z maqsadini puxta bilishi, metodlar yordamida talaba yoshlarni qiziqtira olishi lozim. Buning uchun albatta o‘quv jarayonida moddiy-texnik baza yaratilgan bo‘lishi maqsadga muofiq. Va yana shuni aytib o‘tish kerakki talaba yoshlarni xolisona baholash uchun talim jarayonida boholash avtomatlashtirildi. Bugungi kunda har bir sog‘lom inson yangi asrda o‘zi, qarindoshlari, yaqinlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o‘rni va salohiyati qanday bo‘lishini o‘ylashi tabiiy. Shuning uchun har bir inson izlanishdan tohtamasligi va har doim harakatda bolmog‘i kerak.

Ta’lim tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar alohida o‘rin tutadi. Ularning kasbiy mahorati, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy sifatlari barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhum ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov kadrlar tayyorlash milliy daturi to‘la ro‘yobga chiqsa, ijobiy ravishda “portlash effekti” sodir bo‘lishini bashorat qilib shunday degan ekan: “Ishonchim komil, agar bu islohotni amalga oshirsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma’nodagi portlash effektiga ya’ni samaradorligiga erishamiz”

1) Ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va mammlakatdagi muhit keskin o‘zgaradi;

2) Inson hayotda o‘z ornini toppish jarayoni tezlashadi;

3) Jamiyatda erkin fikrlovchi shaxslar shakillanadi;

4) Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensional kuchlarini ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;

5) Oldimizda turgan har qanday fazifani bajarishda va maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa "portlash effektiga" olib keladi.

Har bir inson o'zi tug'lib o'sgan jamiyat rivoji uchun o'zining salmoqli hisssasini qo'shishi, shu mamlakat tinchligi va osoyishtaligini asrashi kerak. Har birimiz o'zimizda ijobiy manoda portlash affektini ko'rsata olsak bu kelajagimiz uchun yana bitta qadam hisoblanadi.

O'zbekistonlik metodist B.L.Ferberman Pedagogik texnalogiyaga quydagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya ta'lim jarayooniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga soladigan, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodiusadir".

V.P.Bespalkoning O'zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidahmedov va M.Ochilovalarning fikricha, "Pedagogik texnalogiya – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitrish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensive shakllantirish jarayonidir"

M.V.Klarin fikricha, "Pedagogik texnologiya o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan ko'rsatkichlardan maqsad kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir".

Pedagogik texnologiya – o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanish, qayta ishlash o'quvchi yoki talabalarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnalogiyasiga daxldor. Pedagogik texnologiya, o'z navbatida, ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va diagnostic maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarni ishlab chiqish va takomillashtiradigan o'quv jarayonidir.

Pedagogik texnologiyaning umumiy muammolari ko‘p va rangbarangdir. Bular orasida an’anaviy ta’limga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish, pedagogic jarayonni tashomillashtirish, demokratik pedagogika elementlarini shakllantirish va ulardan amalda foydalanish, hamkorlik va insonparvarlik pedagogikasini kuchaytirish, bilim oluvchi va tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirish, ta’lim mazmunini didaktik tamoyillar asosida boyitish, o‘quv jarayonini yuksak darajada tashkil etish va uni boshqarish, talim tarbiya jarayonlarining uzluksiz monitoring va nazorati hamda sarhisobini amalga oshirish, rivojlantiruvchi texnologiyalarni samarali tarzda qo‘llash kabilar alohida o‘rin tutadi.

Pedagogik texnologiyaning eng murakkab jarayon insonning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanishda asosiy vosita bo‘lganligi tufayli ham uning asoslari ham shaxs murakkabligi kabi xilma-xildir. Ular orasida tarixiy, nazariy, ijtimoiy, falsafiy, metodologik, pedagogik, didaktik, gigienik, iqtisodiy, mafkuraviy, amaliy va boshqalar farq qilinadi. Pedagogik texnologiya fan sifatida o‘zining hayotdagi munosib o‘rnini egallab bormoqda. Pedagogik texnalogiyaning o‘z tarkibi va mazmuni bo‘yicha takomillashuvi, uning kasbiy faoliyat sifatida samaradorligining ortishi uzluksiz davom etadi. Bunday dinamik jarayon ta’lim tizimida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan garmonik tarzda kechadi. Texnologiyaning umumiy tasnifi va tarkibiy mazmuni uning ijtimoiy hodisa ekanligida namoyon bo‘ladi va ta’lim-tarbiya masalalari bilan bog‘liq maqsad va vazifalar, motiv va extiyojlar, qiziqish va xohishlarni amalga oshirishda ro‘y-rost ko‘rinadi.

Mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy foydali mehnatga layoqatli kadr darajasigacha tarbiyalash ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi iborasini esga olish o‘rinlidir: “Kadrlar tayyorlash uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u har birimizdan astoydil, betinim va mashaqqatli mehnatni talab etadi.” Haqiqatdan ham, bir tomondan, barcha davlat tuzilmalari hamda ijtimoiy tashkilotlar va, ayniqsa, ta’lim tizimi mutasaddilarning zimmasiga bu masala yuksak mas’uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiya ta’lim jarayonida hukm surayotgan inqirozdan qutilishning yagona va bosh mezonidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. H.T.Omonov, N.X.Xo‘jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T.: Toshkent -2009

2. N.N.Azizxo‘jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” T.: Toshkent -2006

3. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanova “Pedagogika tarixi” T.: Toshkent 1996.

4.Sharafitdinov Abdulla, Karakulova Umida Abduvakilovna, Rahmatullayeva Mushtariy Parda qizi. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, *1*(2), 586–589. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/279

5.П.М.Рахматуллаева, М.А.Маҳкамова ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlar-talim-sifatini-oshirishda-motivatsiyaning-rni-yohud-ulkan-ma-sadlar-sari-dastlabki-adam (дата обращения: 26.01.2023).

6.Rahmatullayeva M. O ‘QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO ‘NALISHLARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.

7.Rahmatullayeva M. XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4

8.Otamuratov, R.U. (2022). O‘smirlardagi kasbiy o‘zligini anglashidagi xavotirlanishning psixologik xususiyatlari. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS) , (Maxsus soni 1), 49-54.

9.Otamuratov, R.U. va Ochilova, M. (2022). Emotsional intelekt tushunchasining psixologik o‘ziga xosligi. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS) , (Maxsus soni 1), 54-58.

10.Uskanovich OR (2022). Psixologiyada xavotirlanishning ilmiy-psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali , 494-498.

11.Р.У.Отамуратов., Ўқувчиларда касбий мотивациялар шаклланишининг психологик омиллари. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғундиги. 2021.,

12.O‘quvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy yO‘nalishlari.M Rahmatullayeva - Журнал Педагогики и психологии в современном …, 2021 Похожие статьи Все версии статьи (30)

13.Xalq pedagogikasida ta'lim va tarbiya masalari.M Rahmatullayeva - Журнал Педагогики и психологии в современном …, 2021Похожие статьи Все версии статьи (15)

14.Ёшлар таълим сифатини оширишда мотивациянинг ўрни ёхуд улкан мақсадлар сари дастлабки қадам ПМ Рахматуллаева, МА Маҳкамова - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022

15.Axborot savodxonligi va axborot izlash xulq-atvoridagi psixologik omillar

16.S Abdulla, KU Abduvakilovna - International Journal of Contemporary Scientific and …, 2022

17.Gulomovna R. G. Talabalarda pedagogik muhitni shakllantirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 506-509.

18.Rashidova G. G. Socio Cultural Approach as a Modern Direction of Teacher Training //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 169-172.

19.Rashidova G. “Compentlik” and “compactness” of tincalaring of talhs and jewelry //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2021. – Т. 2021. – №. 4. – С. 99-112.

20.Gulomovna R. G. Modern requirements for the socio-cultural competence of a teacher of history //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 3. – С. 1834-1838.
21.Davlataliyevna, S. N. (2022). Oiladagi salbiy muloqotning farzand psixologiyasiga ta'siri. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 475-478.
22.Davlataliyevna, S. N. (2022). Psychology and its principles. Scientific Impulse, 1(5), 823-826.
23.Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologoya va turli xil psixologik amaliyotlar. Scientific Impulse, 1(5), 820-822.
24.Пирог, Г. В. (2021). Психологические особенности жизненных перспектив современной молодежи. Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги, 253-255
25.Шарафитдинов А. и др. Проблема застенчивости у ребенка и ее устранение //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 64-66.
26.Шарафитдинов А. и др. Формирование у учеников чувства общности //Образование и воспитание. –2020. –No. 2. –С. 66-67
27.Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
28.Sharaffitdinov, A., & Yusupov, U. (2022). The opportunities of educating morality for children through samples of folklore. Eurasian Scientific Herald, 5, 65-68.
29.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6
30.Alibekov, D. (2021). Sotsialno-filosofskie osnovы razvitiya sistemы obrazovaniya. *Jurnal muzыki i iskusstva*, *2*(2).

31.Alibekov, Davron. “Sharq mutafakirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari.” *музыки и искусства* 2.1 (2021).

32.Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.

33.Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Ravshanova Xurshida Xusanovna. "O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA’SIRI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 91-94.

34.Abduvakilovna, Karakulova Umida, and Xolboyev Jasurbek Baxriddin o‘g‘li. "O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 87-90.

35.Abduvakilovna, Karakulova Umida. "OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI." *Journal of new century innovations* 19.2 (2022): 95-98.

36.Yuldasheva S. I.A. KARIMOV ASARLARIDA YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXSNI SHAKLLANTIRISH G‘OYALARI //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2021. – Т. 1. – №. 4.

37.Sharafitdinov Abdulla, Yuldasheva Sojida Zoyirovna. (2022). ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 432–436. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/226

38.Yuldasheva Sojida Zoirovna, Nizomov Bekhruz Umarovich, Kholova Mohina Khayot qizi, & Eshtemirov Avazbek Nodir ugli. (2022). PSYCHOLOGY OF TRUST AND SECURITY. Journal of Academic Research and Trends in

Educational Sciences, 1(12), 153–161. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/365

39.Abduvakilovna K. U. O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI //O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 14. – С. 763-767.

40.Djumanov, S. (2023). TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSIGA YONDASHUVLAR VA TUSHUNCHALAR. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7719

41.Arakulov, G. (2023). ВНИМАНИЕ – ВАЖНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЯВЛЕНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7681

42.Arakulov, G. (2023). АГРЕССИЯ - ЎСМИРЛАРДА ТАЖОВУЗКОРЛИК ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7714